

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN
STATE UNIVERSITY**





List of used literature:

1. PF-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan".
2. PF-5106 of the President of the Republic of Uzbekistan "On increasing the effectiveness of state youth policy and support the activities of the Youth Union of Uzbekistan." July 5, 2017.
3. Karimov I.A. High spirituality is an invincible force. T., Spirituality, 2008, pp. 61-62
4. Spiritual and educational technologies of patriotic education in the context of globalization. Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference, 2019.

**YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA MILLATLARARO
TOTUVLIK MUHITINI MUSTAHKAMLASH ZARURATI**

Holiqov Lazizjon Maxmud o'g'li, Фармонова Мухаббат Юнусовна

Buxoro davlat universiteti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada millatlararo munosabatlarning mazmun-mohiyati va O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasida amalga oshirilgan strategik islohotlar, ijtimoiy falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash zarurati borasidagi maqsad va rejalar yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** tolerantlik, strategiya, konfessiya, hamjihatlik, deklaratsiya, rezolutsiya, ma'rifat, 72-sessiya.*

**НЕОБХОДИМОСТЬ УКРЕПЛЕНИЯ АТМОСФЕРЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО
СОГЛАСИЯ В НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА**

Халиков Лазизжон Махмуд угли, Фармонова Мухаббат Юнусовна

Бухарский государственный университет

***Аннотация:** В данной статье анализируются сущность и значение межнациональных отношений и осуществляемые в Узбекистане стратегические реформы по укреплению межнациональных отношений, социально-философский аспект. Также в новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы освещены цели и планы по укреплению атмосферы межнационального согласия.*

***Ключевые слова:** толерантность, стратегия, конфессия, солидарность, декларация, резолюция, просвещение, 72- сессия.*

**THE NEED TO STRENGTHEN THE ATMOSPHERE OF NATIONAL HARMONY IN
THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN**

Khalikov Lazizjon Maxmud ugli, Farmonova Mukhabbat Yunusovna

Bukhara State University

***Annotation:** this article analyzes the essence of nation-wide relations and the strategic reforms carried out to strengthen nation-wide relations in Uzbekistan, from a social philosophical point of view. In addition, the development strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026 highlights the goals and plans for the need to*

strengthen the atmosphere of national harmony.

Scientific Bulletin of NamSU. Hayriyat (Jesim) - 2022. 4-son. 72-73-son

Bugungi kunda millatlararo totuvlik, tolerantlik, bag'rikenglik, hamjihatlik masalasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish dolzarb mavzulardandir. Millatlararo totuvlik va bag'rikenlik masalasi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va huquqiy islohotlarning yangi taraqqiyot bosqichida muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. U otabobolarimiz to'plagan jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elatlar hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qilib, 141 ta milliy-madaniy markaz va 36 ta do'stlik jamiyati faoliyat yuritayotganligi buning yorqin namunasidir.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev e'tirof etganidek, "...O'zbekiston - ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat. Lekin bizning eng katta boyligimiz - turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikdir, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan jonajon O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani ayniqsa quvonarlidir. Biz bunday bebaho boylik bilan haqli ravishda faxrlanamiz hamda davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini, mamlakatimizdagi do'stlik va ahillik muhitini yanada mustahkamlashga yo'naltiramiz" [1].

Keyingi yillarda millatlararo totuvlik masalasi haqida juda ko'p risola, o'quv qo'llanma va dasturlar chop etilgan va bu ishlar to'xtab qolgani yo'q. Buning sabablaridan biri esa, millatlararo totuvlik tushunchasining mohiyati va mazmuni jihatdan juda murakkab va serqirraligi, teran mazmunga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Xususan, Falsafa qomusiy lug'atida millatlararo totuvlikka "muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha"[2] sifatida ta'riflangan.

Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviyat insonning fikri, aqli, g'oyasi, ishonch-e'tiqodi, fe'l-xulqi, yurish-turishi, borliqqa, tabiat-jamiyatga munosabati, yaxshilik-yomonlikka munosabatining yig'indisi. Shunchaki yig'indisi emas, balki shakllangan muayyan sharoitga tatbiq qilish mumkin bo'lgan majmui deb aytishimiz mumkin.

"Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati"da "millatlararo totuvlik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Millatlararo totuvlik - millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik, milliy g'oyaning asosiy g'oyalaridan biri, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha"[3].

Oksford lug'atida millatlararo totuvlik (tolerantlik)ni "shaxs yoki buyumni norozilik siz yoki aralashuvsiz qabul qilishga tayyorlik va qobillik" deb ta'riflanadi[4].

Rossiyada nashr etilgan sosiologik lug'atda esa, millatlararo totuvlikka quyidagicha ta'rif berilgan:

<\$ yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, hissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv;

<\$ noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan hodisalarga bag'rikenglik bilan yondashuv;

<\$ noqulay, nomaqbul hissiy omillar ta'siriga ham chidam bilan yondashuv[5].

Ko'rinib turibdiki, millatlararo munosabatlarning mazmun-mohiyatini har kim har xil

tushunadi, ba'zilar uni asosan sabr-toqat deb tushunsa, boshqalar insoniyatning birligi, boshqalar huquqini hurmat qilish va boshqacha bo'lish huquqi deb tushunadi, yana boshqalar esa uni *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-НамДУ ilmiy axborotnomasi-2022-yil 4-con* jazavalarga, nomuayyanlik vaziyatiga, mojaro vaziyatiga chidamlilik deb tushunadilar.

Demak, millatlararo munosabatlar - muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashlari, hamkorlikda faoliyat yuritishlarini, mamlakatimizdagi turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni ifoda etuvchi tushuncha.

Nazarimizda, millatlararo hamjihatlik, har bir millat va elatning o'z vazifa va burchini anglab yetishni nazarda tutadi. Bu vazilalar va burch ko'p millatli muhitda hayot kechirish, shu jumladan, o'zining munosabatlariga, malaka va ko'nikmalariga, muloqot olib borish ehtiyojiga talabchanlik bilan qarash zarurligi, ya'ni bir-birini tinglash, tushunish, shuningdek, ko'p yillar mobaynida to'planib qolgan muammolarni sabr-toqat bilan o'zaro maslahatlashib, har qaysi tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich ijobiy hal qilishga intilishni taqazo qiladi.

Fikrimizcha, jamiyatimizning hozirgi kunida millatlararo munosabatlarning barcha omillarini hayotga tadbiq etish zarur. Avvalo shuni alohida qayd etish joizki, millatlararo hamjihatlik millatlararo aloqa madaniyatida millatlar va elatlarga o'zligini anglatishi bilan birga quyidagi masalalarni ham e'tiborga olishni nazarda tutadi:

<\$ millatlar, elatlar, irqning o'zaro bir-birini hurmat qilishi;

<\$ har bir millat, elatning tillarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish;

<\$ har bir xalq tarixini hurmat qilish;

<\$ boshqa xalqlar milliy urf-odat va marosimlariga sabr-toqat bilan yondosha bilish;

<\$ turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarga halal bermaslik;

<\$ milliy fe'l-atvor xususiyatlarining hisobga olinishi millatlararo munosabatlar jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi[6].

Shu alohida ta'kidlash joizki, o'z xalqining tarixini, urf-odatlarini tizimi, marosimlari, turmush tarzi o'ziga xosliklarini anglash va chuqur idrok etish nihoyatda muhim va zaruriy hol bo'lib, millatlararo hamjihatlikka bevosita ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

1948 yilda qabul qilingan BMTning universal Deklaratsiyasiga muvofiq ravishda insonning fuqarolik, siyosiy, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi bitimlar tayyorlangan. Bugun jahondagi ko'pchilik davlatlar bu bitimlarni qo'llab quvvatlab kelmoqdalar. Inson huquqlari muammosi millatlararo totuvlik bilan chambarchas bog'liqligi inobatga olinib, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning muqaddimasida bunday deyilgan: "Bashariyat oilasining barcha a'zolariga xos bo'lgan qadr-qimmatni hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini e'tirof qilish ozodlik, adolat va yalpi tinchlikning negizidir"* 7]. So'ngra hujjatning 1-moddasida: "barcha kishilar erkin tug'iladilar, ularning qadr-qimmatini va huquqlari tengdir" deb ta'kidlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 maydagi **"Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari**[8] Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, xavfsizlik, barqarorlik va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan o'zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda muhim qadam bo'ldi. Farmonda jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni

ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash kabi ishlarni yanada kengaytirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimizning 2017 yil 19 maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan

do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi** tashkil etildi[9].
Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-НамДУ илмий ахборотномаси-2022-йил 4-сон
Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy - ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi ham millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimizni keng targ'ibot qilish kabilarga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2018 yil oktabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi muassisligida **"O'zbekiston" jurnali** chop etila boshlandi.

2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida **"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi**. Loyihasi O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Rezolyutsiyaning qabul qilinishi 2017-yil sentabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi bo'ldi[10].

Davlatimiz rahbari BMT yuksak minbarida turib so'zlar ekanlar, O'zbekiston tomonidan taklif etilgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi "barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat" ekanini qayd etgan edilar. Hujjat "bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashish"ga qaratilgan.

Ushbu tashabbusni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi qator boshqa idoralar bilan hamkorlikda rezolyutsiya loyihasi matnini ishlab chiqish va uni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlar bilan kelishish bo'yicha tizimli ishlar olib bordi[11].

Mazkur rezolyutsiya nafaqat BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning 50 dan ziyod mamlakati bilan hammualliflikda qabul qilingani e'tiborga molik. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekiston rahbari tashabbusining dolzarbligi va o'z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e'tirofidan dalolatdir. Hujjatda dinlar, madaniyatlar va konfessiyalararo munosabatlardagi uyg'unlikni rag'batlantirish hamda ayrim shaxslarga nisbatan din va e'tiqodlar zamiridagi kamsitishlarga yo'l qo'yilishiga qarshi kurashishga qaratilgan barcha xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi.

Shuningek, 2021 yil 10 fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Xalqlar do'stligi" kunini belgilash to'g'risida"gi qonun imzolandi. Shu munosabat bilan 30 iyul kuni O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi" kuni sifatida belgilandi [12].

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadida jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash yuzasidan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olingan:

Birinchidan, milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Ikkinchidan, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash.

Uchinchidan, turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

To'rtinchidan, xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida

davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.

Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-НамДУ ilmiy axborotnomasi-2022-yil 4-son
Beshinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik

jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish [13].

Muxtasar qilib aytganda, millatlararo totuvlik fuqarolik jamiyatining qadriyati va normasidir. Shu ma'noda u jamiyat barcha a'zolarining turlicha bo'lish huquqida, dinlar (konfessiyalar) siyosiy, etnik va boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda, dunyodagi turli madaniyatlar, sivilizatsiyalar va xalqlarning xilma-xilligini hurmat qilishda, tashqi qiyofasi, tili, e'tiqodlari, urf-odatlar va diniy qarashlari bir-biridan farq qiladigan kishilar bilan hamkor va hamjihatlikka tayyorlikda namoyon bo'ladi. O'zbekistonning xalqaro maydonda yaqin va uzoq qo'shnilarimiz bilan olib borayotgan do'stona aloqalarini, o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosatini, dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan qarama-qarshilik va to'qnashuvlarni faqatgina siyosiy muzokaralar, tinchlik yo'li bilan hal etish bo'yicha yondashuv va qarashlarining mazmun-mohiyatini har birimiz teran anglashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, № 238 (8018)
2. Falsafa qomusiy lug'ati. -T.: "Sharq", 2004. -B.262.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. -T.: "G'ufor G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi", 2009. -B.379.
4. Тишков В.А. О толерантности. //Толерантность и согласие. Материалы международной конференции "Толерантность, взаимопонимание и согласие". Якутск, июнь, 1995. М., 1997. - С.19.
5. Российская социологическая энциклопедия. -М.: "Наука", 1998. -С.278.
6. Karimova E. O'zbek tolerantligining o'ziga xos xususiyatlari. -T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2006. -B.33.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. //Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. -T.: "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi", 2012. -B.196.
8. "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 5046-sonli Farmoni, 2017 yil 19 may. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 23 may.
9. <http://www.uza.uz/oz/> O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichi.
10. <https://mfa.uz/> O'zbekiston Prezidentining tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.
11. <https://mfa.uz/> O'zbekiston Prezidentining tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.
12. O'zbekiston Respublikasining "Xalqlar do'stligi kunini belgilash to'g'risida" 10.02.2021 yildagi O'RQ-672-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5277501>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni // <https://www.lex.uz/docs/-5841063>
14. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. - T. 1. - №. 6. - C. 229-233.
15. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan // Asian Journal of Multidimensional Research. - 2021. - T. 10. - №. 9. - C. 197-202.